
Soliqchilar ishtirokida seminarlar o'tkazildi

Farg'ona viloyat sudi tomonidan tasdiqlangan reja asosida viloyat hamda viloyat ma'muriy sudlari sudbyalari va soliq organlari vakillari ishtirokida Farg'ona va Quvasoy shaharlari hamda Quva va Farg'ona tumanlari Davlat soliq inspeksiyalarida O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining "Sudlar tomonidan soliq qonunchiligini qo'llashning ayrim masalalari haqida"gi qarori mazmun-mohiyati hamda boshqa mavzularda seminar uchrashuvlari o'tkazildi.

Tadbirda soliq organlari tomonidan sudlarga arizalar topshirish ularni ko'rib chiqish jarayonida yuzaga keladigan muammolar va ularni hal qilish bo'yicha taklif mulohazalar haqida so'z yuritildi. Soliq sud organlari o'rtasida tadbirkorlik sub'ektlari va fuqarolarning huquq va erkinliklarini yanada mustahkamroq himoya qilish yuzasidan hamkorlik masalasi kelishib olindi.

2023-05-23 21:58:59